

## O'quv ilmiy markazning hozirgi xolati xamda kelgusidagi rejalari

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali "O'quv-ilmiy markaz"da olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish uchun Ilmiy bo'lim boshlig'i B.Matyakubov hamda prof.v.b. F.Jo'rayev TIQXMMI Buxoro filialai ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari tashrif buyurishdi. Tashrif jarayonida Buxoro filiali "O'quv-ilmiy markaz"da yetishtirilayotgan ekin turlari hamda ularni sug'orishda qo'llanilayotgan sug'orish usullari bilan yaqindan tanishildi. Hozirgi kunda "O'quv-ilmiy markaz" da 5 gektar yer maydoniga boshqoqli don 5 ga maydonda makkajo'xorining turli navlari ekilib tajriba sinov ishlari olib borilayotganligi kuzatildi. Quyida makkajo'xori holatini o'rganish jarayonidan lavhalar keltirilgan.



### **Makkajo'xorilarning o'sish xolatini o'rganishmoqda.**

Shuningdek 2021 yilda "O'quv-ilmiy markaz" da Buxoro-2, Buxoro-6 va Buxoro-8 navlari ekilgan bo'lib, sug'orishning suv tejamkor texnologiyalar, plyonka to'shab sug'orish, tomchilatib sug'orish kabi usullardan foydalanib, paxtalarning o'sish va rivojlanish jarayonlarida bo'ladigan ijobiy o'zgarishlar o'rganilib kelinmoqda. Hamda suv tejamkor sug'orish texnologiyalarni qo'llash jarayonida kuzatilgan muammolar bo'yicha fikr almashilindi.



### **G'o'za dalasida ana'naviy sug'orish usuli hamda qator oralariga plyonka to'shab sug'orish jarayoni.**

G'o'za yetishtiriladigan maydonda qo'llanilayotgan texnologiya bo'yicha dalolatnoma ramiylashtirildi hamda keng miqyosda tadbiq qilish va tijoratlashtirish masalalarini o'rganib chiqish kerakligi ta'kidlab o'tildi. Qora plyonka to'shab sug'orish tashkil etilgan maydonlarda ana'naviy usulga nisbatan suvning g'o'za ildiz ostida saqlanish muddati o'zayishi, begona o'tlar chiqmasligi hisobidan g'o'zaning 30-40 foizga rivojlanishi va hosil to'plash jarayonlari yaxshi ekanligi joyida o'rganilib hulosalari qilindi. Ammo sug'orish ishlarini bajarishda suvni o'simlik ildiz tizimiga berish kerakligi miroblarga tushuntirildi. Hamda sug'orish jarayonini tashkil qilinishi bilan tanishildi.



### **Tomchilatib sug'orish jarayoni**

Yuqorida keltirilgan suv tejamkor sug'orish texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy natijasini berayotganligi va hozirgi kunda ko'pgina fermer xo'jaliklarida keng joriy etilayotganligi bilan dehqonlarning diqqat markazida bo'lib turilganligi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa sug'orish suvlarining Buxoro viloyatiga 100 foiz nasos orqali berilayotgan har bir litr suvni tejash hamda suv tejamkor sug'orish texnologiyalarni qo'llashda katta ahamiyat kasb etmoqda. TIQXMMI Buxoro filialining "O'quv-ilmiy markaz"ida "Suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasining bir guruh olimlari Birlashgan millatlar tashkilotining qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi FAO/GEF bilan hamkorlikda 290 mln. so'mlik tadqiqot ishlar amalga oshirilayotgan "Markaziy Osiyo va Turkiyaning qurg'oqchil va sho'rlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish landshaftlarida tabiiy resurslarni kompleks boshqarish" (GCP/SEC/293/GFF) loyihasi doirasida sho'rga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va sho'rlanishni bartarf etish bo'yicha yangi texnologiyalarni qo'llab hamkorlikda ITI olib borilmoqda. Bundan tashqari loyiha doirasida Avstraliyada ishlab chiqarilgan qiymati 27 ming dollarga ega bo'lgan EM-38 zamonaviy qurilmasi filialga taqdim etilib, unda tuproq namunasini olmasdan hech qanday kontaktsiz tuproq elektr o'tkazuvchanligini aniqlash, JPS orqali geolokatsiya ma'lumotlarini bir vaqtning o'zida qayd etish, daladan ko'p hajmdagi axborotlarni tez va

ishonchli olish imkoniyatini berishi ilmiy ishlarda hamda vaqt tejash va ilmiy ishlarni aniqlik darajasini ko'taradi. Shuningdek ushbu loyiha doirasida jami qiymati 286,5 mln so'm miqdorda ilmiy tadqiqot ishlari "O'quv-ilmiy markaz"ida Romitan, Jonjor, Shofirkon tumanlarida ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari Filialning 05.07.01 - "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" va 06.01.02 - "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" hamda 06.01.10 - Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosliklari bo'yicha tahsil olyotgan tayanch doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlari, magistr va talabalarning o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlarini kelgusida "O'quv ilmiy markaz"da tashkil qilinishi kerakligi takidlab o'tildi. Shuni hisobga olgan holda O'IMda yashash va ilmiy ishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilishi kelgusida nazariya va amaliyot chambarchaslikda olib borilishini ta'minlaydi.

**T.f.d.,prof.v.b. F.Jo'rayev TIQXMMI Buxoro filialai ilmiy  
ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari.  
TIQXMMI matbuot xizmati**